



PUBLITSISTIK MATNLARDA TURG‘UN DISFEMIK IFODALARDAN TA‘SIRCHANLIKNI OSHIRISH MAQSADIDA FOYDALANILISHI

Samandarova Sadoqat,

O‘zJOKU o‘qituvchisi, PhD

Email: https://samandarovasadoqat8@gmail

<https://orcid.org/0009-0007-8306-2651>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20751229>

Annotatsiya. Mazkur maqolada publitsistik matnlarda turg‘un disfemik ifodalardan foydalanishning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Disfemik frazeologizmlarning publitsistik matn ta‘sirchanligini oshirish, o‘quvchi e‘tiborini jalb qilish, muallifning subyektiv munosabatini ifodalash hamda axborotning emotsional-ekspressiv ta‘sir kuchini kuchaytirishdagi o‘rni yoritilgan. O‘zbek ommaviy axborot vositalari materiallari asosida disfemik frazeologizmlarning semantik va uslubiy imkoniyatlari misollar yordamida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: disfemizm, disfemik frazeologizm, publitsistik matn, ta‘sirchanlik, ekspressivlik, pragmatika, ommaviy axborot vositalari, uslubiyat.

Annotation. This article examines the linguopragmatic features of the use of fixed dysphemistic expressions in journalistic texts. It highlights the role of dysphemistic phraseological units in increasing the expressiveness of media texts, attracting readers’ attention, conveying the author’s subjective attitude, and enhancing the emotional impact of information. Based on examples from Uzbek mass media, the semantic and stylistic potential of dysphemistic phraseological expressions is analyzed.

Keywords: dysphemism, dysphemistic phraseology, journalistic text, expressiveness, pragmatics, media discourse, stylistics, emotional impact.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвопрагматические особенности использования устойчивых дисфемистических выражений в публицистических текстах. Освещается роль дисфемистических фразеологизмов в повышении выразительности текста, привлечении внимания читателей, выражении субъективного отношения автора и усилении эмоционального воздействия информации. На материале узбекских средств массовой информации анализируются семантические и стилистические возможности дисфемистических фразеологических единиц.

Ключевые слова: дисфемизм, дисфемистический фразеологизм, публицистический текст, выразительность, прагматика, средства массовой информации, стилистика, эмоциональное воздействие.

Kirish. Ma‘lumki disfemik ifodalar muayyan tushunchani nutqda qo‘pol, dag‘al, nomadaniy tarzda ifodalaydigan til birliklaridir. Ba‘zi tilshunoslarning fikricha, ulardan ko‘p foydalanish nutq egasining madaniy saviyasini ham aks ettiradi: “Disfemizmlar so‘zlashuvda madaniy saviyasi past kishilar nutqida uchraydi. Badiiy asarlarda, odatda, ataylab salbiy fe‘l-atvorli kishilar nutqiga olib kiradi”[1, B.25]. Demak, disfemik ifodalar og‘zaki nutqda qo‘llanganda shu nutq egasining til madaniyatining darajasini ham ifoda etar ekan. Jurnalistlar yozuvchilardan farqli ravishda nutq egasining til madaniyatini tasvirlash uchun emas, publitsistik matnda axborotni dag‘al, diqqatni tortadigan qilish uchun, ma‘lum ma‘noda axborotning ta‘sir kuchini oshirish maqsadi bilan qo‘llaydi.



Publitsistik matnlarga disfemik ifodalar madaniy saviyaning pastligini namoyish etish uchun emas, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish maqsadida olib kirilar ekan, bu tip ifodalarning publitsistik matndagi o'rni va shakli ham publitsistik janr maqsadi va talabiga mos bo'lishi lozim.

So'z yoki birikma shaklidagi disfemizmlar qo'pol mazmuni bo'rttirib ifodalashga xizmat qilsa, disfemik frazeologizmlar mavjud axborot haqida tasavvurning yanada aniq bo'lishiga, xotirada saqlanib qolishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunos A. Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da frazeologik birliklarga "tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik, turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi" deyiladi va frazeologizmning "obrazlilik va ko'chma ma'nolilik" integral belgilari turg'un birikmalardan farqlovchi differensial belgilari sifatida e'tirof etiladi[2, B.24].

Ko'plab tadqiqotchilar frazeologik birliklarning ma'no tarkibida konnotativ baholi qismining ahamiyatli ega ekanligini ta'kidlaydilar, bu esa ularning semantik tuzilishida obrazlilikning majoziy qayta fikrlashning ustuvorligini ko'rsatadi va bu frazeologik nominatsiyaning xususiyatlaridan hisoblanadi. Frazeologik disfemik ifoda ma'nosining konnotativ komponentining muhim jihati, birinchi navbatda, disfemik nominatsiya natijasida yuzaga kelgan hissiy baholashning ta'siri bilan bog'liqligidir.

E.A. Zemskayaning kuzatishlariga ko'ra, disfemik frazeologizmlar zamonaviy jurnalistikada parodiya va masxara qilishning asosiy vositalaridandir[3, B.9-31]. Ammo bu ta'rifdagi holatning o'zbek publitsistikasi matnlarida qo'llanadigan frazeologizmlarga to'la mos keladi deb bo'lmaydi. Sababi disfemizmlardan yumoristik yoki satirik maqsadda foydalanish o'zbek tilidagi publitsistik matnlarda kam uchraydi. Bunday iboralar, asosan, badiiy matnlarda ko'proq qo'llanadi.

Xalqaro hayot bilan bog'liq siyosiy mazmunli publitsistik matnlarda davlat rahbarlari yoki boshqa amaldorlarga nisbatan disfemik frazeologizmlar qo'llanishi tabiiy hol hisoblanadi. Masalan, odamga nisbatan qo'llangan "Pentagon rahbarligiga *"quturgan it"* laqabli general[4]" jumlasini ham parodiya, ham haqorat mazmunini anglatayotgan disfemik iboradir. Maqolada ushbu iborani qo'llash orqali *"quturgan it"*ga qiyos qilinayotgan rahbar haqida o'quvchilarda qo'rquv, hadik va nafrat uyg'otish ham maqsad qilingan. Tilshunoslar fikriga ko'ra, dunyo mediamaydonida disfemik ifodalardan foydalanishning ommalashishi demokratiya va og'zaki so'zlashuv madaniyatining adabiy tildan farq qilib borishi bilan aloqador, deb talqin qilinadi[5, B.34]. Ya'ni, ma'lumki, adabiy til me'yorlari muayyan madaniy qoliplarga bo'ysunadi. So'zlashuv uslubida esa fikrni aniq, tushunarli va "qog'ozga o'ramagan" holda yetkazish ehtiyoji dolzarb. Shu



jihtadan, soʻzlashuv uslubida disfemik ifodalar adabiy tilga nisbatan koʻproq qoʻllanadi. Bizningcha, bu nazariya faqat adabiy til va soʻzlashuv madaniyatiga tegishli emas. Chunki disfemik ifodalar badiiy va publitsistik uslublarda ham tez-tez murojaat qilinadigan til vositalaridir. Shuningdek, rus tilshunosi V.M. Mokienko ayni fikrni qoʻllab-quvvatlagan holda, “oshkoralik sabab yozilmagan haqiqatlar ham disfemizmlar orqali yozila, aytila boshladi” deydi[6,B.75]. Yaʼni bu oʻrinda tilshunos disfemizmlarni haqiqatni yetkazish vositasi sifatida talqin qiladi. Disfemik frazeologizmlar esa bu haqiqatlarni oʻquvchiga yanada taʼsirchanroq yetkazish va publitsistik matn tilining xalqchil boʻlishiga yordam beradi. Bu fikrni quyidagi iqtibos orqali ham tasdiqlash mumkin: “Qoʻpol iboralardan tarkib topgan nutq – nafaqat zamonaviy soʻzlashuv muloqotida, balki ommaviy muloqot – mitingda, siyosiy nutqda, ekranda, radioda, gazetada va internetdagi veb-saytlarda ham odamlarni turli xatti-harakatga undovchi vositalardir”[7,B.260]. Shu bilan bir qatorda yuqorida aytilganidek, har doim shunday boʻlmagan. Disfemizm mavzusining tadqiqiy taraqqiyoti evfemizmga nisbatan ortda qolgan. Xususan, oʻzbek tilshunosligida disfemik ifodalarga tabu sifatida qaralgani sababli disfemik iboralar, asosan, xalq ogʻzaki ijodi namunalari tarkibida oʻrganilgan.

“Oʻzbek tilshunosligida disfemizmlar tilning alohida ifoda birligi sifatida oʻrganilmagan. Bu hodisaning kam oʻrganilganligiga sabab qilib madaniy muloqotni amalga oshirishda qoʻpol soʻzlarning ishlatilishi mumkin emasligi, badiiy asarlarda odob nuqtayi nazaridan bunday ifodalarning qoʻllanishi toʻgʻri kelmasligi kabi holatlar...”[8,B.14] mavjud boʻlsa-da, disfemik ifodalar ham, disfemik frazeologizmlar ham oʻzbek tilining mulki sanaladi. Ayniqsa, bugungi kun publitsistik matnlari misolida disfemik ifodalarni tadqiq qilish oʻzbek tilining yangi qirralarini kashf etishga sabab boʻladigan ehtiyojdir.

Tadqiqot metadologiyasi. Disfemizmlar oʻz ichida bir nechta semantik guruhlariga boʻlingani kabi disfemik frazeologizmlar ham umumiy maʼno birliklariga ajraladi. Masalan, oʻzbek tilining boy lugʻaviy manbasida haqorat, uyat, kasallik, mazax, baʼzan achchiq kulguni satirik mazmundagi disfemik iboralar uchraydi. Yaʼni disfemik frazeologizmlarni birlashtiruvchi umumiy belgi nafaqat haqorat, kamsitish yoki odobsizlik kabilar emas, balki dagʻal ifodadir.

Shu nuqtayi nazardan oʻzbek tilshunosligida disfemizmlarning evfemik ifodalarga nisbatan kam tadqiq qilinganini faqat madaniy muloqot meʼyoridan tashqarida ekanligi bilan izohlash toʻliq xulosa boʻla olmaydi. Qolaversa, bugungi kunga kelib publitsistik matnlarda disfemik frazeologizmlardan foydalanishning tabiiy ehtiyoji paydo boʻlib bormoqda. Bu ehtiyoj axborot maydoni kengligi, raqobat kuchayishi sababli, kerakli maʼlumot haqida oʻquvchida qandaydir fikr paydo qilish, oʻylashga, baʼzan vijdonini uygʻotishga turtki berishdan iboratdir.

Zotan, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar ongini “dangasalashtirish”, jiddiy mavzulardan chalgʻitish, yengil-yelpi axborotlarga qiziqtirish ommalashib bormoqda. Aynan shunday davrda disfemik iboralar yordamida jamiyat uchun ahamiyatli, insonlarni ijobiy harakatlarga undaydigan axborotlarni oʻquvchiga taʼsirchan shakl va mazmunda yetkazish imkoniyati mavjud. Bu holatga nisbatan “Achchiqning zahrini achchiq kesadi” degan oʻzbek xalq maqolini qoʻllash fikrimizni yanada aniqlashtiradi.

Tahlillar va natijalar. Badiiy va soʻzlashuv nutqida bir tushunchani ifodalaydigan bir nechta disfemik frazeologizmlar uchrashi mumkin. “Oʻzbek tilida *“oʻladi (oʻlimi yaqin)”* maʼnosida muayyan guruh frazeologizmlari shakllangan. Masalan: *umri bitganday, bir haftaga bormaydi, vaqti soati yetibdi, vaqti yaqin, toʻrt besh-kunligi qolibdi, xuftongacha qolmaydigan koʻrinadi (bu individual-muallif frazeologizmi), koʻzidan nur soʻnibdi, ketar boʻlibdi, tomoqdan qolibdi, omonat boʻlib qolibdi, hayotga qaytmaydi, narigi tomonning sharpasi tushib qolibdi*” va h.k. Mazkur frazeologizmlarni A. Omonturdiyev oʻladi (oʻlimi yaqin) soʻzi oʻrnida qoʻllanadigan evfemik xarakterdagi sinonimlar hisoblaydi.

Bizningcha ham, ular evfemik xarakterdagi birliklardir, chunki ayni frazeologizmlar oʻrnida *oʻlimi yaqin, oʻladi* deyish bilan ifoda disfemiya hodisasi yuz beradi. Ijodkorlar ayni disfemiklashuvdan qochish maqsadida yuqoridagidek frazeologizmlardan foydalanadi va evfemik muhitni yaratadi”[9,B.71].

Bu fikrlardan ikki xulosa chiqarish mumkin. Birinchisi, baʼzi evfemik xususiyati yuqori boʻlgan frazeologizmlar neytral maʼnoli soʻzga nisbatan disfemik mazmun yuklashi mumkin. Ikkinchisi esa publitsistik matnlarga oid boʻlib, bir qatorda kelgan disfemik frazeologizmlarning aksariyati badiiy matnlarga xos boʻlganligi sababli ham publitsistik matnlarda ishlatilganda janr “tanlashi” mumkin, badiiy-publitsistik matnlarda uchrashi ehtimoli yuqori. Masalan, yuqorida sanab oʻtilgan oʻlim bilan bogʻliq frazeologizmlarning disfemik muqobillari sifatida *yer tishlamoq, ajali yetmoq, oʻz ajali bilan ketmoq, ajal chaqirmoq, asfalasofilinga ketmoq* kabi iboralar ham mavjud. Ammo publitsistik matnlarda bu kabi frazeologizmlar kam uchraydi, oʻlim bilan bogʻliq frazeologizmlardan asosan evfemik mazmundagilar koʻproq ishlatiladi. Shu sababdan ham, taʼkidlanganidek, *oʻladi* soʻzining oʻzi publitsistik matnlarda disfemik ifodani aks ettiradi.

Publitsistik matnlarda disfemik mazmunga ega frazeologizmlar asosan jinoyat, firibgarlik bilan bogʻliq yangiliklar yoki tahliliy maqolalarda uchraydi. Bu bilan jinoyatning koʻlami yanada aniqlashishiga, taʼsirchanlik ortishiga, baʼzan muallifning shaxsiy munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, aldov, oʻgʻrilik bilan bogʻliq disfemik frazeologizmlardan *talon-taroj qilmoq, koʻzini oʻymoq, yeb yubormoq* kabilardan axboriy janrda tez-tez foydalaniladi. Ayniqsa, oilaviy, shaxsiy munosabatlar yoki lavozim egalariining moliyaviy firibgarliklarini yoritishda samarali qoʻllanadi. Xususan, quyidagi



misollarda ham disfemik frazeologizmlar shunday ma'noda ishlatilgan: "...fermasi 733 mln so'mlik elektrni talon-toroj qilgani aniqlandi", "Sirdaryoda kredit mablag'larini "yeb yuborgan" shaxslar aniqlandi"[10,B.3-5].

Bunday matnlarda disfemik ifodasi bor iboralardan foydalanishdan ko'zlangan birlamchi maqsad ta'sirchanlikni oshirish, mazmuni yanada bo'rttirib ifodalash bilan birga, o'quvchini sergaklikka, ogohlikka chorlash hamdir. Qolaversa, amaldorlarning bu kabi jinoyatlarini fosh qilishda disfemik frazeologizmlardan foydalanish tahqirlash, obro'sizlantirish va bunday xatti-harakatlar haqida salbiy munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi. Siyosiy mavzudagi publitsistik matnlarda ham salbiy munosabatlarni bo'rttirish, davlatlar o'rtasidagi aloqalarni oshkora namoyish qilish, mamlakatlar rahbarlari yoki mas'ul xodimlarning ijtimoiy imijini ta'sirchan shaklda ko'rsatish uchun disfemik frazeologizmlardan foydalanish holatlari mavjud.

Shu o'rinda disfemik ma'noga xos holatga to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, ba'zi disfemik ifodalar matndan tashqarida neytral bahoni anglatadigan so'z yoki birliklar hisoblanadi. E'tiborli jihati shundaki, matndan tashqarida evfemik ma'nodagi ba'zi birliklar kontekstda disfemik ma'noni ham ifodalashi mumkin. Ingliz tilshunoslari K. Allan va K. Buriy bir vaqtning o'zida ham evfemizm ham, disfemizm bo'la oladigan bunday birliklarni iksfemizmlar deb atagan[11,B.303].

Ammo "iksfemizm" atamasi mavzuga oid adabiyotlarda uchramaydi. Fransuz va rus tilidagi publitsistik matnlarga xos bo'lgan evfemizmlar va disfemizmlarni tadqiq qilgan tilshunos M. Cheporuxinaning ilmiy ishida esa bu atama evfemizm va disfemizmlarga nisbatan umumiy bo'lgan termin sifatida talqin qilinadi[12,B.3].

Shuningdek, disfemik frazeologizmlar asl ma'noni mavjud holatidan bo'rttirish yoki muallif vaziyatga nisbatan nafratini ifodalashga ham xizmat qiladi. Bunday mazmun ko'proq harbiy, jangovar yoki aholining ijtimoiy himoyasiz qatlami halok bo'lishi bilan bog'liq publitsistik matnlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, *qo'li qonga botgan* disfemik iborasi publitsistik matnlarda turli noqonuniy harbiy harakatlarni amalga oshirgan, begunoh insonlarning o'limiga sababchi bo'lgan siyosiy shaxslarga nisbatan ochiqdan ochiq qo'llanadi. Disfemik ibora o'rnida, deylik, neytral mazmundagi qotil, yovuz singari so'zlar qo'llansa, kuchli tasviriy ifoda aniq sezilmaydi. Bu esa matnning ta'sirchanligi va muallifning subyektiv munosabatini namoyish qilishni ta'minlamaydi.

Ommaviy axborot vositalari orasida gazeta matnlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Kunni gazeta o'qish bilan boshlaydigan aholi qatlami ko'pligi uchun ham aynan gazetadagi matnlarda disfemik iboralarni qo'llash amaliyoti keng tarqalgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bugungi kunda gazeta matnlarining axborot berish vazifasi ikkinchi darajaga tushib, publitsistik matnning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'siri birlamchi maqsadga aylangan[13,B.196]. Statistik ma'lumotlarda dunyo bo'ylab



yangiliklarga qiziqish 63 foizdan 47 foizgacha pasaygani qayd qilinadi[14]. Shuningdek, O'zbekistonda gazeta matnlarining ta'sir kuchini hatto o'rta darajada baholab bo'lmaydi. Disfemik frazeologizmlardan foydalanish tajribasi esa aynan ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Disfemik frazeologizmlar disfemik birliklarga nisbatan ham o'quvchining yuqori salbiy emotsiyasining qo'zg'alishiga turtki beradi. Masalan, *pulsiz, puli yo'q* mazmunida qo'llanadigan *gadoy, kambag'al* kabi disfemizmlarning ma'no qatorida *cho'ntagi quruq, cho'ntagida hemiri yo'q, sariq chaqaga zor* kabi iboralar matnni so'z yoki birikma shaklidagi qo'pol so'zlardan ko'ra ta'sirchanroq ifodalaydi.

Publitsistik matnlarda so'zlashuv uslubida ko'p qo'llanadigan disfemik frazeologizmlardan foydalanish keng tarqalgan. Tashkilot yoki shaxslarni mazax qilish maqsadida ana shunday subyektiv bahosi disfemik ifodalar ishlatiladi. Bunday disfemizmlar xalqqa tushunarli bo'lgani sababli subyektiv munosabatning salbiyligi oson anglashiladi. Masalan, "*Deputat o'z murojaatida fikrlarini noto'g'ri tushuntirdi*" deyish o'rniga "*Deputat o'z murojaatida qovun tushirdi*" kabi ko'rinishda ifodalash mumkin. Misol uchun, "*Bu orada AKT vazirligi qovun tushirib qo'ydi*"[15]. Ushbu disfemik frazeologizm orqali publitsistik matn tilining xalqchil, e'tibortalab bo'lishi bilan birga, tahririyatning tashkilotga nisbatan subyektiv munosabati ham ifodalanmoqda.

Xulosa. Bundan tashqari, disfemizmlarning frazeologik shaklining publitsistik matnlarda qo'llashda yana boshqa ko'plab nazariyalardan foydalaniladi. Disfemik frazeologizmlar sinonim xususiyatli disfemik birliklarga nisbatan publitsistik matnlarning mazmunini ta'sirchan va esda qolarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Xullas, disfemik xarakterli frazeologik yoki turg'unlashgan birikmalar o'zbek tilidagi publitsistik matnlarda ta'sirchanlikni oshirish, matnni to'liq o'qishga undash hamda xalqning muloqot tiliga yaqin bo'lishini ta'minlash maqsadida qo'llanadi. Qolaversa, salbiy, keskin munosabatni bo'rttirib tahririyat yoki jurnalistlarning subyektiv qarashlarini ham ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mengliyev B., Xoliyorov O'. Ona tili. Qomus. – T., 2009. – B. 35.
2. Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izoqli lugati. – T.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2022. – Б. 124.
3. Земская Е. Введение // Русский язык конца двадцатого столетия (1985–1995). 2-е изд. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 9–31.
4. <https://www.amerikaovozi.com/amp/mattis-pentagon/3631819.html>
5. Добрава М. Фразеологические дисфемизмы и эвфемизмы в русскоязычном интернет-дискурсе // *Rossica Olomucensia* Vol. LX. – С. 34.
6. Мокиенко В., Никитина Т. Словарь русской брани (матизмы, навязчивость, эвфемизм). – СПб., 2004. – С. 75.
7. Ковшова М. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь современных русских эвфемизмов. – М.: Гнозис, 2007. – С. 260.



8. Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати: филол. фан. номз. дисс. – Т., 2011. – Б. 14.
9. Шамсиева Ш. Хитой ва ўзбек тилларида маиший эвфемизмларнинг лингвомаданий тадқиқи: Фил. фан. б. фал. докт.... дисс. – Т., 2020. – Б. 71.
10. “Postda” gazetasi, 2024-yil, 16-son. – В 3-5.
11. Allan K., Burrige K. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. – С.: Cambridge University Press, 2006. – P. 303.
12. Чепорухина М. Эвфемия и дисфемия и французский и русский язык (на материалах интерактивных новостей): Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Тюмень. 2022. – С. 3.
13. Паршина О. Стратегия и тактика речевого поведения современной политической элиты России. – Аст., 2004. – С.196.
14. <https://aniq.uz/yangiliklar/tadqiqot-odamlar-yangiliklarga-qiziqishni-yuqotmoqda>
15. <https://kun.uz/news/2021/11/04/telegramni-bloklashga-urinish-obrosi-tokilgan-hukumat-qovuntushirgan-vazirlik-va-ishdan-ketgan-uch-amaldor>